

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.1 (575.1)

OLIMJONOV ZARIFJON ZOIRJON O‘G‘LI


DAVLAT QARZINI SAMARALI BOSHQARISH YO‘NALISHLARI

08.00.07-«Moliya, pul muomalasi va kredit»

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA ISHI**

Ilmiy rahbar: i.f.d., professor A.U.Burxanov

Toshkent-2024 yil



MUNDARIJA

KIRISH	3
I bob. DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY VA FUNDAMENTAL ASOSLARI	14
1.1-§ Davlat qarzini paydo bo‘lishi, uning asosiy manbalari va iqtisodiy-ilmiy asoslari.....	14
1.2-§ Davlat qarzining turlari, shakllari va boshqarishning asosiy jihatlari.....	25
1.3-§ Davlat qarzini baholashning asosiy indikatorlari va undan foydalanishning asosiy xususiyatlari.....	37
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	54
II bob. DAVLAT QARZINI BOSHQARISH VA ULARDAN FOYDALANISH JARAYONLARINING TAHLILI	56
2.1-§ Davlat tashqi qarzini o‘zgarish dinamikasi va tarkibiy tuzilishining tahlili.....	56
2.2-§ Davlat ichki qarzini shakllanish mexanizmi va yalpi qarz miqdori o‘zgarishini makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sirining ekonometrik tahlili.....	73
2.3-§ Xalqaro fond birjalaridan kapital jalb qilish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish amaliyoti va uning tahlili.....	86
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	97
III DAVLAT QARZINI BOSHQARISH MEXANIZMINI bob. TAKOMILLASHTIRISH	99
3.1-§ Davlat qarzini boshqarishning xorijiy davlatlar tajribasi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	99
3.2-§ Davlat qarzini samarali boshqarishda o‘rta va uzoq muddatli strategiyalarni joriy etish amaliyotini takomillashtirish.....	112
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	128
XULOSA	130
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	132
ILOVALAR	138

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida bugungi kunga kelib aksariyat mamlakatlarda davlat qarzi hajmi va qarz yuki darajasi sezilarli darajada oshayotganligi kuzatilmoqda. Ayniqsa iqtisodiyoti rivojlangan va Yevropa ittifoqi davlatlarining so‘nggi yillarda jami qarzi xajmi YAIM ga nisbatan xalqaro tavsiya etiladigan chegaraviy me‘yorlardan bir necha foizlarga o‘sib borayotganligini qayd etish mumkin. Jaxon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda dunyo mamlakatlarining jami davlat qarzi rekord darajaga yetib 303 trln. AQSH dollarni yoki jaxon YAIMni 351% ni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich AQSH da 30,1 trln. AQSH dollar yoki YAIMga nisbatan 137% ni, Yaponiyada YAIMga nisbatan 257%ni, Buyuk Britaniyada esa YAIMga nisbatan 96%ni tashkil etgan. Jahon tashqi qarzining 62%i AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri kelsa, Yaponiya va Buyuk Britaniya davlatlarini qo‘shib hisoblaganda 77% atrofidagi ulush ushbu davlatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda¹. Albatta rivojlangan davlatlarda rivojlanayotgan yoki o‘tish davridagi mamlakatlarga nisbatan davlat qarzi belgilangan chegaraviy me‘yorlardan yuqori bo‘lsada, ularda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari va YAIM xajmining yuqori ekanligi qarz bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash imkoniyati yuqori hisoblanadi. Bugungi kunda davlat qarzini samarali boshqarish, qarzni jalb qilishda zamonaviy instrumentlardan foydalanish borasida tadqiqotlarni olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda iqtisodiy-moliyaviy integratsiyalashuv sharoitida jahon moliya bozorida qarz instrumentlari bilan bog‘liq operatsiyalarning xajmi yuqori sur‘atlar bilan o‘shib borishi oxirgi yillarda davlat qarzi xalqaro moliya tashkilotlari shuningdek, moliyaviy ekspert-mutaxassislar va ilmiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Davlat qarzi xalqaro siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Davlat qarzini samarali boshqarilishi davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash bilan bir qatorda turli iqtisodiy-ijtimoiy inqirozlarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta‘kidlash lozimki, xalqaro

¹ <https://www.worldbank.org/en/about/annual-report/world-bank-group-downloads>- Jahon banki ma‘lumotlari